

KONSTITUTSIYA BU MILLIY FAXRIMIZ VA G'URURIMIZDIR

Ruzibayev Ravshanbek

*Adliya Vazirligi Xorazm viloyati Yuridik texnikumi
Sud-huquqiy faoliyati 23-10 guruhi o'quvchisi.*

Annotatsiya: ushbu maqolada Konstitutsiyamizning milliy ahamiyatini va uning davlatimizdagi o'rni haqida so'z yuritadi. Konstitutsiya har bir mamlakatda xalqning suvereniteti va davlatning asosiy qonuni sifatida faoliyat ko'rsatadi. O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasi ham xalqimizning orzu-umidlari, erkinliklari va huquqlarini ta'minlaydigan, davlatning barqarorligi va rivojlanishining asosiy huquqiy kafolati hisoblanadi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya, fuqarolarning tinchlik va osoyishtalikda yashash huquqlarini mustahkamlab, barcha ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarda adolatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, davlat, qonun, boshqaruv, ramz, hujjat.

Konstitutsiya – davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, sud tizimini belgilab beradi. Konstitutsiya bu bizning faxr va iftixorimizdir. Konstitutsiya bu har bir davlatning asosiy ramzlaridan bo'lib, uning jahon davlatlari o'rtasida qadr-qimmatini bildiradi. Xalqaro konstitutsiyaviy tajribalarni o'rganish, xalqaro hujjat qoidalarni inobatga olish, milliy davlatchilik an'analardan kelib chiqib jahon andozalariga mos bo'lib, xalqaro talablarga javob beradigan Mustaqil O'zbekistonimizning bosh qomusi qabul qilingan. Konstitutsiya – bu bizning o'zbek xalqining asosiy qonuni bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xalqimizning mustaqillik sari uzoq va mashaqqatli yo'lidagi izlanishlar natijasidir. Konstitutsiyaviy "bino"ni barpo etishda uch ming yillik davlatchilik tajribasiga tayanilgan. Konstitutsiya so'zi lotincha "constitution" – tuzilish, tuzuk so'zlaridan olingan. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini ularning vakolati, shakllanish tarkibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va shaxsning o'zaro munosabatlarini, shuningdek, sud tizimini hamda davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlarini belgilab beradi. Asosiy qonunimiz sharq va g'arb, janub va shimolning 97 ta mamlakati to'plagan ilg'or konstitutsiyaviy tajribasi hisobga olingan Konstitutsiyamizning yaratilishi yo'lidagi birinchi huquqiy qadam – 1989-yil 21-oktyabrda ona tiliga davlat tili maqomining berilishi istiqlol tarixining eng yorqin sahifalaridan biridir. Ona tilini bilmagan odam kelajagi yo'q odamdir. Konstitutsiyamizning 4-moddasida quyidagicha muhrlab qo'yilgan: "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir." 1992-yil 8-sentyabrda Konstitutsiya loyihasi umumxalq muhokamasiga taqdim etildi va nihoyat 1992-yil 8-dekabr kuni Konstitutsiyamiz qabul qilindi va shu kun umumxalq bayrami deb e'lon qilindi. Konstitutsiya 12-chaqiriq Oliy Kengashning 11-sessiyasida

qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi — O‘zbekiston Respublikasining asosiy qonuni, oliv yuridik kuchga ega bo‘lgan siyosiy huquqiy hujjatdir. Har bir mustaqil mamlakatning asosiy manbalaridan biri bu uning konstitutsiyasi davlatchilik belgisidir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi haqiqatdan ham demokratik konstitutsiyadir. Tarixan sinalgan umuminsoniy, umumbashariy qadriyat, ko‘p asrlik tajriba, ma’naviy qadriyatlarni, ulug‘ ajdodlarimizning huquqiy merosini o‘z ichiga oladi va mujassam etgan huquqiy hujjatdir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mustaqil davlatimizning bosh qomusi bo‘lib, respublikamizda qabul qilinayotgan qonun va qonun osti hujjatlari Konstitutsiya asosida shakllanriladi va hayotga tadbiq etiladi. Diyorumiz mustaqillikka erishgach, milliy istiqlol haqidagi azaliy orzu-umidlarimiz amalga oshdi. Natijada asriy qadriyatlarimiz tiklandi va rivojlanib bormoqda. Madaniyatimiz, dinimiz o‘zining tabiiy-tarixiy, milliy, diniy asoslariqa qaytmoqda. Ayniqsa ma’naviy merosni o‘rganish, ajdodlarimiz qoldirib ketgan turli sohalardagi asarlarni ommalashtirish, ona tili va dinimiz rivojlanishi uchun sharoit yaratildi. Konstitutsiya – davlatning asosiy hujjati bo‘lib, davlat boshqaruvi, hukumat organlari faoliyatining tartibi va tamoyillari, davlat, jamiyat, fuqarolarning huquq hamda majburiyatlar u bilan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ushbu maqsadlarning barchasiga muvofiq, uyg‘un va hamohangdir. O‘zbekistonning Asosiy Qonuni ushbu muhim vazifalarni hayotga tatbiq etishda mustahkam asos bo‘lib xizmat qilayotir. Unda inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qiymati, diniy e’tiqodi va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat ekanligi belgilab qo‘yilgan. Konstitutsiyamizda jinsi, millati, dini, irqi, yoshi, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat‘i nazar, barcha fuqarolar teng huquqli deb e’lon qilingan bo‘lib, unda inson huquqlari va e’tiqod erkinligini kamsitadigan birorta ham modda yo‘qdir. Asosiy qomusimiz hatto insoniyatni qamrab olgan ona tabiat, yer osti va yer usti tabiiy boyliklarigacha qonun himoyasida ekanligi, hozirgi kunda yer yuzida mavjud davlatlarning deyarli barchasi o‘zlarining Konstitutsiyasiga ega bo‘lmagan bir paytda, milliy ramzlar qatorida tilga olinadigan Konstitutsiyaga bizning mamlakatimiz ham ega ekanligi baxtimiz albatta. Asosiy qonunimizda demokratik huquqiy davlat, adolatli fuqarolik jamiyatining qiyofasi, o‘ziga xos belgi va xususiyatlari o‘z ifodasini topgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida O‘zbekiston xalqi huquqiy davlat barpo etishni maqsad qilgani ko‘rsatilgan bo‘lib huquqiy davlatning muhim va ajralmas belgisi bu qonun ustuvorligi hisoblanadi. Qonun ustuvorligi – bu davlat hokimiyati va boshqaruv organlari chiqarayotgan qarorlar, farmoyish, hujjatlar, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari faqat va faqat konstitutsiya va uning qonunlariga muvofiq bo‘lishi shartdir, degani. Shu boisdan barcha bo‘g‘indagi kadrlar, u xoh vazir, hokim, president yoki oddiy fuqaro bo‘lsin konstitutsiya va qonunlarni puxta bilishi, ularning ijrosini to‘g‘ri tashkil etishi shartdir. “Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – farovon hayot garovi” degan tushunchani

fuarolarimizning ongi va qalbida chuqr egallashi uchun:
1) qonunlar ijrosini samarali tashkil qilish, tizimli muammolarni aniqlash va bartaraf etish;

2) jamoatchilik nazorati va faolligini oshirish. Buyuk yunon olimi Aflatun shunday degan edi: “Xalq qonunlarga ehtyoj sezib, ularni puxta o‘rgansa bu faqat uning o‘ziga foyda keltiradi. Aks holda qonunda ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi”;

3) ommaviy axborot vositalarining qonuniylikni qaror toptirishda “jamiyat ko‘zgusiga aylanishi kerak;

4) qabul qilingan qonunlarning olib borayotgan islohotlarimiz bilan uyg‘un bo‘lganda;

5) fuqarolarimizning huquqiy bilimi, ongi va madaniyatini yetarli bo‘lishi. Qonun ustuvor bo‘lgan davlatda rivojlanish, yuksalish bo‘ladi. Uning ustuvorligini ta’minlash esa yetakchining mahorati va jamiyatning huquqiy ongiga bog‘liqdir. Bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev olib borayotgan siyosatlarida aynan shu jarayonni ko‘rishimiz mumkin.

Bugungi kunda yoshlarimizning juda ko‘pchiligi o‘qimishli, oliy ma’lumotli bo‘lib bormoqda, bu esa kelajak sari qo‘yilayotgan mustahkam poydevordir. Hayotimizda bilimli, huquqiy madaniyati yuqori bo‘lgan yoshlar ko‘paymoqda. Ular hech bo‘lmaganda o‘zining huquq va burchlarini biladi. Bilimli inson har doim va har qanday joyda o‘z fikrini mustaqil bayon eta oladi va o‘ziga ishonadi. Qonun ustuvorligini bugun bilim olayotgan, izlanuvchan, tashabbuskor, ilmli, salohiyatl yoshlarimiz ta’minlaydi. Bizning maqsadimiz erkin va farovon demokratik huquqiy jamiyat barpo etishdir. Konstitutsianing III bobida “Konstitutsiya va qonunning ustunligi” deb nomlanishi biz unga so‘zsiz rioya qilishimiz kerak ekanligini ko‘rsatadi. Barcha ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni konstitutsiya va qonunlarimiz tartibga solib turadi. Qonunlar inson manfaati uchun xizmat qiladi. Qonun ustuvorligi ta’minlanmagan jamiyatda iqtisodiy inqiroz, korrupsiya, insonlarning ertangi kuniga ishonchi yo‘qoladi. Bunday davlatning kelajagi yo‘qdir. Qonun ustuvor bo‘lgan davlatda erkinlik, adolat, tenglik kafolatlanadi, hokimiyatning shaxsga ta’siri chegaralanadi, inson huquqlari himoyalanganadi, mulk huquqiga rioya qilinadi, odil sudlov mustaqil bo‘lib samarali amalga oshiriladi.

Konstitutsiyamiz bu bizning faxrimiz, g‘ururimizdir. Uning mustaqilligini mustahkamlash xalqimizning tinch-osuda, farovon hayotini ta’minlashning muhim asosidir. Yoshlarimiz bugun barcha jabhalarda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar hamda yangilanishlar zamirida, eng avvalo, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish, jamiyatda qonun va qonuniylik ustuvorligini kafolatlash, xalqimizning tinch, farovon, rozilik hamda minnatdorlik hissi bialn yashashni ta’minlashdek ulug‘ maqsadlar mavjudligini chuqr anglab yetmoqda. Konstitutsiyamiz barchamiz uchun asosiy mezon bo‘lishi uning qoidalari hayotimizning asosiy qoidalari va maqsadlariga ayllanishi darkor. Prezidentimiz aytganlaridek, qonunlar jamiyat manfaatlari uchun xizmat qilishi lozim. Shunda insonlar unga ishonadi. Bu bilan “qonunlar faqat bizning manfaatimiz uchun ekan” deb boshqalarning manfaatiga ziyon yetkazib bo‘lmaydi. Barcha

fuarolarning huquqlari bo‘lgani kabi majburiyatlari ham “Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari” deb atalgan ikkinchi bo‘limida o‘z ifodasini topgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-bo‘limida O‘zbekiston Respublikasining mustaqil davlat sifatidagi konstitutsiyaviy prinsiplari ko‘rsatilgan. “Bizning konstitutsiyamiz bu bizga yo‘l ko‘rsatuvchi mayoqdir” desam adashmagan bo‘lman. Chunki, biz qanday faoliyatni amalga oshirmoqchi bo‘lsak, har bir joyning o‘ziga hos tartib-qoidasiga duch kelamiz. Shunda bizning huquqiy ongimiz bizga yordam beradi. Biz bu muammoni katta deb o‘ylashimiz yoki huquq va burchlarimizni bilgan holda oson yechim topishimiz mumkin. Har bir xatti-harakatlarimiz, so‘zlarimiz tartib asosida konstitutsiyada qonunlashtirilgan. Qonundan chetga chiqish qonun asosida javobgarlikka tortilishga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, har bir millatning asrlar davomida sayqallanib kelayotgan qadriyatları ham mavjudki, bu bizning konstitutsiyamizda o‘z ifodasini topgan. Bizning xalqimizdagi insonparvarlik, mehr-oqibat, rahm-shafqat kabi yuksak tuyg‘ular ham qonunlarimizda tarkib topgan. Xususan, Prezidentimiz tomonidan jinoyat yo‘liga kirib qolgan ko‘plab fuqarolarning ozod etilishi, berilgan muddatlarining qisqartirilishi, sudyalar tomonidan sud jarayonida jinoyatchiga nisbatan qo‘sishma tomon, ma’lumot sharoitlarni hisobga olgan holda yengillashtirilgan jazo turlarining tatbiq etilishi va h.k. Konstitutsiyadagi har bir qonunimiz avvalo, biz uchun hizmat qiladi. Shuning uchun bugungi yoshlar konstitutsiya va qonunlardan xabardor bo‘lishi, jamiyatda qanday o‘zgarishlar bo‘layotganligi bilan qiziqishi lozimdir. Konstitutsiya va qonunlarimizni asrashimiz, ma’nosiga tushunish, ularga alohida hurmat va e’tibor bilan qarashimiz kerak.

Har bir davlat o‘z taraqqiyot yo‘lini tanlar ekan, eng muhim maqsad va vazifalarini belgilab oladi. Konstitutsiyamizda ham xalqimizning xohish-irodasi, inson huquq va manfaatlari, davlat tuzilishi o‘z ifodasini topgan. Bosh qomusimiz jinsi, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar yurtimiz fuqarolari tengligining kafolatlanishini qayd etadi va zamona viy demokratik taraqqiyot uchun zamin yaratdi. Shu bois konstitutsiyamizni ardoqlaymiz, ulug‘laymiz, o‘rganamiz. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimizning siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasidir” degan edi. Prezidentimizning bir ajoyib gapalri bor va u har bir amaldor, boshliq, mas’ul xodimning ongida muhrlanib turishi kerak. Prezidentimiz “xalq bizdan rozi bo‘lishi kerak” degan gaplari ularning qanchalik xalqparvar ekanliklarining yana bir yorqin ifodasidir. Shavkat Mirziyoyevning konstitutsiya asosida qabul qilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy va boshqa jabhalardagi qarorlari mamlakatimizni har tomonlama yuksaltirib bormoqda. Xususan, tashqi siyosatda chet el mamlakatlari bilan shartnomalar oshib bormoqda, yoshlarimiz chet ellarda bemalol o‘qib kelmoqda, ish o‘rganmoqda, ishlamoqda, xalq qabulxonalari tashkil etilishi, ishonch telefon raqamlari, yoshlar o‘rtasida kitobxonlik, til o‘rganish oshib bormoqda, qurilish ishlari, aholining kam ta’minlangan qatlamlariga moddiy yordam, uylar berilmoqda. Ayniqsa, qurilayotgan

binolarni ko'rib, ko'kalamzorlashtirish ishlari dilni yayratadi. Konstitutsiya va qonun barqaror mamlakatda shunday go'zalliklar yaratiladi. Konstitutsiyada jamiyat taraqqiyotiga turtki beruvchi g'oyalar o'z ifodasini topadi. O'zbekistonimizning Konstitutsiyasida keljak avlodlarga ozod va obod vatan qoldirish, ularning baxt-u kamolini ko'rishdek orzu-havaslar o'z ifodasini topgan bo'lib unda jamiki ne'matlar orasida eng ulug'i Inson degan fikr ilgari surilgan va shu asosda fuqaro-jamiyat-davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatning oqilona huquqiy yechimi belgilab berilgan. Konstitutsiyani puxta o'zlashtirgan shaxs kuchli, mukammal, ertangi hayotga ishonchi mustahkam bo'ladi. Konstitutsiya – tarixiy axamiyati beqiyos hujjatdir. Unda tarixiylik zamnaviylik bilan uyg'unlashib jahonning ijtimoiy, siyosiy, falsafiy va huquqiy tafakkuri sohasida erishilgan yutuqlari mujassamlashgan.

Bugun yurtemizda keng qamrovli xalqchil islohotlar kechmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida amalga oshirilayotgan barcha sa'y-harakatlarning asl mohiyati har bir O'zbekiston fuqarosining hayotdan rozi bo'lib yashashiga qaratilgan. Mamlakatimizda inson qadr-qimmati va sha'ni yuksak darajaga ko'tarilgan. Vatanimizda yashovchi barcha fuqarolar ushbu Qomusda belgilab qo'yilgan huquq va erkinliklardan keng va to'liq foydalanmoqdalar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023 yilning 1 may kunidan kuchga kirdi. Yangi tahrirdagi konstitutsiya 30 aprel kuni bo'lib o'tgan referendum natijasiga ko'ra qabul qilindi. 1992 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga jami 15 marta o'zgartirish kiritilgan. Yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 6 ta bo'lim, 27 ta bob va 155 ta moddadan iborat. Bu yangi konstitutsiya xalqimizning orzu-istiklarini jamlanmasi bo'ldi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yurtemizning bosh qomusi- Konstitutsiyamizni o'rganish hamda o'z huquq va burchlarini bilish, qonun-qoidalarga rioya qilish, uning davlatimiz siyosatida muhim o'rinn tutishini anglash va o'rganish har bir fuqaro uchun suv va havodek zarur hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi,
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni va qarorlari. Prezidentimiz ma'ruzalari.
3. Internet saytlari.
4. Абдуллаева, Ш. А., & Мухаммадиева, Х. К. (2016). Девиант хулқли илк ўспирин ёшидагиларни ижтимоийлаштириш ва профилактика ишларини олиб бориш. Современное образование (Узбекистан), (11), 48-53. 12.
5. Абдуллаева, Ш. А. (2012). Педагогическая диагностика и коррекция.
6. Абдуллаева, Ш. А., Сайитов, С. С., & Халикова, Г. И. (2010). История педагогики. Т.:«Фан ва ахборот технологиялари, 52.

7. Арипова, М. Г., & Абдуллаева, Ш. А. (2020). Электронный тьюторинг в коллaborативном проекте как основа трансформации знаний в обучении студентов русской литературе. Современные проблемы науки и образования, (6), 89-89.
8. Абдуллаева, Ш. А. (2015). Непрерывная связь науки и образования в Республике Узбекистан (на примере педагогической деятельности Ташкентского областного
9. Аблаева, Н. К. (2024). ПРОБЛЕМЫ ИЗУЧЕНИЯ ЛИТЕРАТУРЫ В СОВРЕМЕННОЙ ШКОЛЕ. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 2(5), 152-156.
10. Аблаева, Н. К. (2024). РОЛЬ ПРИРОДЫ В ДРАМЕ ОСТРОВСКОГО «ГРОЗА». MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 8(8), 176-181.
11. Аблаева, Н. К. (2024). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ФОЛЬКЛОРНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ В БАЛЛАДЕ В. ЖУКОВСКОГО «СВЕТЛНА». YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(3), 129-132.
12. Аблаева, Н., & Джуманиязова, И. (2024). ВОЗМОЖНОСТИ КОРПУСНОЙ ЛИНГВИСТИКИ В ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО СЛОВООБРАЗОВАНИЯ. «CONTEMPORARY TECHNOLOGIES OF COMPUTATIONAL LINGUISTICS», 2(22.04), 520-524.
13. Аблаева, Н. К. (2024). НРАВСТВЕННО-ФИЛОСОФСКАЯ ПРОБЛЕМА В ТВОРЧЕСТВЕ ЛН Толстого (на примере романа "Война и мир"). JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH, MODERN VIEWS AND INNOVATIONS, 1(1), 24-27.
14. Frunzevna, M. Z., & Odilbekovna, R. N. (2024). TIL O'RGANISHDA O'YINLASHTIRISH VA BOSHQA INNOVATSION YONDASHUVLAR. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 9(9), 11-13.
15. Матниязова, Ф. Ф., & Мадрахимова, З. Ф. (2024). ТЕХНОЛОГИЯ ПРИМЕНЕНИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ. THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD, 4(1), 116-118.
16. Мадрахимова, З. Ф., Баркулиева, Л. Р., & Юсупова, М. К. (2024). СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В ФОРМИРОВАНИИ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ: ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ. YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(3), 165-169.
17. Мадрахимова, З. Ф. (2024). Литературные Загадки В Детской Поэзии: Описание, История Создания. Journal of Innovation in Education and Social Research, 2(1), 166-171.
18. Мадрахимова, З. Ф. (2023). ОБРАЗОВАНИЕ СЛОВ ОТ ТЮРКСКИХ ОСНОВ С ПОМОЩЬЮ РУССКИХ СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ. Innovative Development in Educational Activities, 2(9), 142-145.
19. Мадрахимова, З. Ф. (2023). ЕСЛИ НЕ ЖИТЬ СОВРЕМЕННОСТЬЮ-НЕЛЬЗЯ ПИСАТЬ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMUY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(16), 570-572.
20. Suyarov, A., & Axmadov, H. TOG JINSLARI VA ULARNING FIZIKAVIY-MEXANIKA VIY XOSSALARI. ТОШКЕНТ-2021, 28.